

BEGONA O'TLARNING BOTANIK TASNIFI VA GURUHLARI

Sulliyeva Suluv Xurramovna - Termiz davlat universiteti, Botanika kafedrası dotsenti, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi.

Tojiyeva Feruza Anvarovna - Termiz davlat universiteti, Botanika kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining qadimdan sug'oriladigan taqir tuproqlari mintaqasi sharoitida yetishtirilayotgan kuzgi bug'doy bilan bir vaqtda jadal rivojlanadigan boshqoli va ikki pallali begona o'tlarni Puma super 7,5% e.m.v. va Granstar 75DF 75% s.t.s. gerbitsidlari vositasida bartaraf etish va ushbu dalalardagi kuzgi bug'doyning tajriba mintaqasida eng ko'p yetishtirilayotgan Kroshka navining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va boshqa ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganib, mintaqa sharoiti uchun qulay va samarali usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Kroshka navi, Oq sho'ra (*Chenopodium album*), gerbitsidlar, kuzgi bug'doy, begona o'tlar, boshqoli don.

Аннотация. В данной статье представлена информация о методах борьбы с быстрорастущими злаковыми и двудольными сорняками, развивающимися одновременно с озимой пшеницей в условиях древнеорошаемых такырных почв Сурхандарьинской области, с помощью гербицидов Puma super 7,5% э.м.в. и Granstar 75DF 75% с.т.с. Также изучено влияние этих гербицидов на рост, развитие, урожайность и другие показатели сорта Крошка озимой пшеницы, наиболее распространенного в экспериментальном регионе. Представлены данные об удобных и эффективных методах применения гербицидов в условиях данного региона.

Ключевые слова. Сорт крошка, белая солянка (*Chenopodium album*), гербициды, озимая пшеница, сорняки, зерно колосовое.

BOTANICAL CLASSIFICATION AND GROUPS OF WEEDS

Sulliyeva Suluv Khurramovna – Associate Professor of the Department of Botany, Termez State University, Candidate of Agricultural Sciences

Abstract. This article provides information on effective methods for controlling rapidly growing grassy and broad-leaved weeds that develop simultaneously with winter wheat in the long-irrigated takyr soil regions of Surkhandarya province. The study examines the use of herbicides Puma Super 7.5% e.m.v. and Granstar 75DF 75% w.u.f., and their impact on the growth, development, yield, and other characteristics of the Kroshka variety of winter wheat, which is the most widely cultivated in the experimental area. The research aims to determine convenient and effective techniques suitable for the regional conditions. **Key words.** Krushka variety, White sorghum (*Chenopodium album*), herbicides, winter wheat, weeds, spiked grain.

KIRISH. Boshqoli don ekinlari yoppasiga ekilib, maxsus ishlov berilmasligi sababli ular orasida begona o'tlar erkin rivojlanib, suv va oziqa elementlarini o'zlashtirishi, soya qilishi, kasalliklar, zararkunanda, hashoratlarni erkin rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi va boshqa salbiy ta'siridan don hosildorligi va sifati 40-50 foizgacha pasayadi.

Sug'oriladigan yerlarda boshqoli don ekinlari yetishtirilganda qulay sharoit yaratilishi hisobiga begona o'tlarning durkun o'sishi va rivojlanishi evaziga keltiradigan zarari oshadi. Shu sababli ham kuzgi bug'doy dalalaridagi begona o'tlarni ekologik sof va samarali gerbitsidlar vositasida bartaraf etish zaruriyati tug'iladi.

Shuning uchun ham Surxondaryo viloyatining qadimdan sug'oriladigan taqir tuproqlari mintaqasi sharoitida yetishtirilayotgan kuzgi bug'doy bilan bir vaqtda jadal rivojlanadigan boshqoli va ikki pallali begona o'tlarni Puma super 7,5% e.m.v. va Granstar 75DF 75% s.t.s. gerbitsidlari vositasida bartaraf etish va ushbu dalalardagi kuzgi bug'doyning tajriba mintaqasida eng ko'p yetishtirilayotgan Kroshka navining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va boshqa ko'rsatkichlariga

ta'sirini o'rganib, mintaqa sharoiti uchun qulay va samarali usulini ishlab chiqilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Begona o'tlarning qishloq xo'jalik ekinlari orasida 200 tadan 400 tagacha turi uchrab, suv va oziq moddalarni madaniy ekinlarga nisbatan ko'proq o'zlashtirishi, soya qilishi, hosilni yig'ishtirib olishga xalaqit berishi bilan birga serurug'ligi, noqulay sharoitlarga chidamliligi, tez ko'payishi va boshqa xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

S.A.Kott tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, ekinzorlar orasida 400 dan ortiq zararli va zaharli begona o'tlar uchrab nafaqat madaniy ekinlarga, balki odam va hayvonlarga ham katta zarar yetkazadi.

Mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarida keng tarqalgan begona o'tlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni S.N.Rijov va I.F.Sukachlar tomonidan yaratilgan darslikdan olish mumkin. Ushbu olimlarning yozishicha, tuproqda suv va oziqa elementlar qancha ko'p bo'lsa, begona o'tlar shuncha tez rivojlanadi.

N.V.Pokrovskiy va T.N.Solyankolar lalmikor yerlar uchun yaratgan spravochinigida begona o'tlar va ularga qarshi kurashish ishlariga katta ahamiyat berib, lalmikor yerlarda keng tarqalgan begona o'tlarning biologik xususiyatlarini o'rganib, ularga qarshi kurashishning agrotexnologik va kimyoviy usullarini keltirgan.

U.Allanazarova lalmikor yerda yetishtirilayotgan bug'doy dalalaridagi begona o'tlar bo'yicha fenologik kuzatuv ishlarini olib borib, begona o'tlarning qachon pishib yetilib urug' berishi va zararini aniqlashga erishgan.

Demak, begona o'tlarning klassifikatsiyalari orasida A.V.Fisyunov tomonidan taklif etilgan klassifikatsiya amaliyotda begona o'tlarga qarshi kurashishda ko'proq aniqlikka ega bo'lib, undan foydalanish juda qulay.

Tahlil va natijalar. Kuzgi bug'doy dalasida keng tarqalgan begona o'tlarni tarqalishi, ularni aniqlash muddatlariga bog'liq ravishda o'zgarib borishini ko'rsatdi. Ya'ni, bug'doyzordagi barcha turdagi begona o'tlarning soni 20 martdagiga nisbatan 10 aprelda ko'p bo'lishini ko'rsatdi. Lekin, begona o'tlar son jihatdan yillar bo'yicha

bir-biridan keskin farq qilishini ko'rsatdi.

2005-yilda Surxon-Sherobod vohasining Termiz tumanidagi «Namuna» fermerlar uyushmasida o'tkazilgan tajriba dalalarida har bir metr kvadrat maydonda keng tarqalgan begona o'tlar turlari bo'yicha ertachiroq aniqlanganida (20 mart), kechroq aniqlangandagiga (10 aprel) nisbatan birmuncha kamroq bo'lishi kuzatildi.

Oq sho'ra (*Chenopodium album*) 2005 yilning 20-mart sanasida aniqlanganida 1 m² kuzgi bug'doy dalasida 14 donani tashkil etgani holda, 10 aprelda aniqlanganida 4 donaga ko'payganligini ko'rsatdi. Shuningdek, Tatar olabutasi (*Atriplex tatarisa*); xushbuy sho'ra (*Chenopodium botrys*) va chumchuq tili (*Poligonum aviculare*) begona o'tlari ham 10 aprelda 20 martdagiga nisbatan 4 donaga ko'payganligi kuzatildi. Yovvoyi tojixo'roz (*Amarantus retroflex*), dala rang o'ti (*Sinapis arvensis*) va shamak (*Echinochloa crus galli*) begona o'tlari 1 m² maydonda 2 donagacha, yovvoyi suli (*Avena farua*) va itqunoq (*Setaria*) begona o'tlari 3 donaga, boshqa turdagi begona o'tlar esa 11 donaga ko'payishi aniqlandi. Bahorda begona o'tlarning 20 kundan so'ng (20 martdan 10 aprelgacha) bug'doyzorlarda ko'payib borishini bir tekisda unib chiqmasdan davomli bo'lishlik xususiyati bilan ifodalash mumkin. Begona o'tlarning bug'doyzorlarda bahorgi kezlarda bir vaqtda bir tekis unib chiqmasligi ularga qarshi qo'llaniladigan gerbitsidlarni ertachiroq qo'llashga shoshilmaslikni ko'rsatadi.

Kuzgi bug'doy dalasidagi begona o'tlarning bahorgi kezlarda bir tekisda unib chiqmasligi nafaqat bahorgi muddatlarga, balki yillar bo'yicha ob-havo o'zgarishiga ham bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Shu sababli ham 2005-yilda bug'doyzorlarda begona o'tlarning unib chiqish darajasida 2006 va 2007-yillardagi ko'rsatkichlardan farq qilishini ko'rsatdi. Ya'ni, 2005-yilda kuzgi bug'doyning 1 m² maydonchasidagi jami begona o'tlar soni 130 donani tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich 2006-yilda 114 donani, 2007-yilda esa 119 donani tashkil etdi. Shuningdek, begona o'tlarning turlari bo'yicha ham yillar bo'yicha kuzgi bug'doy dalasida unib chiqqan begona o'tlar soni aniqlangan muddatlar va yillar bo'yicha o'zgarib borishi aniqlandi.

2005-2007 yillarda o'tkazilgan uch yillik tajribalarning o'rtacha ma'lumotlari

bo'yicha ikki pallali va boshqoli begona o'tlarning har bir kvadrat metr maydondagi sonlari va turlari bo'yicha har xil bo'lishligi kuzatildi.

Tajriba mintaqasi sharoitida kuzgi bug'doy dalasida keng tarqalgan begona o'tlar soni 20 marta aniqlanganida umumiy soni 120 donani tashkil etgani holda, ikki pallali begona o'tlardan oq sho'ra 13 donani, tatar olabo'tasi 15 donani, xushbo'y sho'ra 16 donani, chumchuq tili 7 donani, yovvoyi tojixo'roz 3 donani, dala rang o'ti 4 donani tashkil etib, boshqoli begona o'tlardan yovvoyi suli 14 donani, itqunoq 11 donani, shamak 12 donani tashkil etib, boshqa turdagi ikki pallali va boshqoli begona o'tlar soni 120 donani tashkil etishi kuzatildi. qayd etilganidek, ikki pallali begona o'tlar orasida sho'ralar soni 20 marta juda ko'p bo'lib, boshqoli begona o'tlar orasida yovvoyi sulining son jihatdan eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi kuzatildi. Biroq, Surxondaryo viloyatining Surxon-Sherobod vohasining o'tloqlashib borayotgan taqir tuproqlari mintaqasi sharoitida bahor kezlarning 10 aprel sanasida barcha turdagi ikki pallali va boshqoli begona o'tlarning maksimal darajada unib chiqishini ko'rsatdi.

Kuzgi bug'doyning Kroshka navi dalasidagi ikki pallali va boshqoli begona o'tlarni gerbitsidlar vositasida bartaraf etishning ikkinchi muddati 10-aprelda aniqlanganida 20-martdagi soniga nisbatan 44 donaga ko'payganligi kuzatildi.

Xulosa. Shunday qilib, Surxondaryo viloyatining Surxon-Sherobod vohasining o'tloqlashgan taqir tuproqlari mintaqasi sharoitida ikki pallali va boshqoli begona o'tlarning maksimal darajada (to'liq) unib chiqqan davri aprel oyining 10-sanasi bo'lib, ushbu kezlarda bunday begona o'tlarga qarshi tegishli gerbitsidlar qo'llanilsa, ularni maksimal darajada bartaraf etilishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алиев А.М. Комплексная борьба с сорняками. //Ж: «Земледелие», №5, 1985.-24-26 с.
2. Khurramovna S. S. et al. Economic efficiency of application of herbicides against double and double weeds in autumn wheat field //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 74-76.

3. Sulliyeva S. X. et al. Biologik ta'limning roli //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

4. Сул리에ва С. Бегона ўтларга қарши кураш самарадорлиги //Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – 2008. – №. 5.